

**BO'LAJAK PEDAGOGLARNI AXLOQIY-ESTETIK
TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI**

Sarsenova Jadira

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi
Nukus filiali Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi
bosh mutaxassisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarni innovatsion yondashuvlar asosida axloqiy-estetik tarbiyalashning nazariy asoslari tahlil qilingan. Innovatsion ta'lim texnologiyalari, interaktiv metodlar va ijodiy yondashuvlarning o'qituvchilar shaxsini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil va empirik kuzatuv metodlari qo'llanilgan. Natijada innovatsion yondashuvlar bo'lajak pedagoglarning estetik didi, axloqiy qarashlari va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlandi. Maqolada xalqaro va milliy ilmiy qarashlar qiyosiy tahlil qilinib, pedagogik jarayonda innovatsion metodlarning ahamiyati asoslab berildi.

Kalit so'zlar. Innovatsion yondashuvlar, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, pedagogik jarayon, bo'lajak pedagog, ma'naviy barkamollik, ta'lim texnologiyalari.

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МОРАЛЬНО-
ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ**

Сарсенова Жадыра

*Государственная консерватория Узбекистана
Отдел контроля качества образования Нукусского филиала
главный специалист*

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические

основы нравственно-эстетического воспитания будущих педагогов на основе инновационных подходов. Освещена роль инновационных образовательных технологий, интерактивных методов и творческих подходов в формировании личности учителей. В исследовании использовались методы теоретического анализа, сравнительного анализа, контент-анализа и эмпирического наблюдения. В результате было установлено, что инновационные подходы эффективны в развитии эстетического вкуса, нравственных взглядов и творческого потенциала будущих педагогов. В статье проведен сравнительный анализ международных и национальных научных взглядов, обосновано значение инновационных методов в педагогическом процессе.

Ключевые слова. Инновационные подходы, нравственное воспитание, эстетическое воспитание, педагогический процесс, будущий педагог, духовное совершенство, образовательные технологии.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF MORAL AND AESTHETIC EDUCATION OF FUTURE TEACHERS

Sarsenova Zhadira

State Conservatory of Uzbekistan

Department of Education Quality Control of the Nukus Branch

chief specialist

Abstract. *This article analyzes the theoretical foundations of moral and aesthetic education of future teachers based on innovative approaches. The role of innovative educational technologies, interactive methods, and creative approaches in the formation of the personality of teachers is highlighted. The research used the methods of theoretical analysis, comparative analysis, content analysis, and empirical observation. As a result, it was established that innovative approaches are effective in the development of aesthetic taste, moral views, and creative potential of future teachers. The article provides a comparative analysis of*

international and national scientific views and substantiates the importance of innovative methods in the pedagogical process.

Keywords. *Innovative approaches, moral education, aesthetic education, pedagogical process, future teacher, spiritual maturity, educational technologies.*

KIRISH. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoni tubdan yangilanmoqda. Insoniyatning intellektual salohiyatini oshirish, yosh avlodni zamon talablari asosida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak pedagoglarni innovatsion yondashuvlar asosida axloqiy-estetik jihatdan tarbiyalash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Pedagog shaxsining axloqiy-estetik qiyofasi nafaqat uning shaxsiy hayoti, balki kelajak avlod tarbiyasi uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki o'qituvchi o'zining bilimlari, mahorati va shaxsiy fazilatlari orqali o'quvchilarga nafaqat bilim beradi, balki ularning dunyoqarashi, estetik zavqi, axloqiy qadriyatlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi ta'lim jarayonini faollashtiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydi, bo'lajak pedagoglarda esa yangi professional kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundan iboratki, XXI asrda ta'lim sifati ko'p jihatdan pedagoglarning axloqiy-estetik qiyofasiga, ularning innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish darajasiga bog'liqdir. Shu sababli ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarni innovatsion yondashuvlar asosida axloqiy-estetik tarbiyalashning nazariy asoslari yoritiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida o'zbek xalqining boy madaniy – estetik qadriyatlari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashni ma'ruza mashg'ulotlari misolida: - “Ma'naviyat, ma'naviy – estetik tarbiya haqida davlat ta'lim siyosati, uning shaxs rivojidagi o'rni”; “Milliy – badiiy meroslarni o'rganish jarayonida ma'naviy –

estetik tarbiyalash va rivojlanish” (o‘zbek folklori, Sharq lirikasi, O‘rta Osiyo miniaturasi, O‘zbekiston arxitekturası yodgorliklari). Ma’naviy – estetik tarbiyalash o‘quv materialı mazmunini tadqiqot muammosi bilan boyitgan holda bo‘lajak o‘qituvchılarning kasbiy shakllanishi maqsadida amalga oshadi.

Bo‘lajak o‘qituvchılarnı ma’naviy-estetik tarbiyalash davlatning ijtimoiy pedagogik buyurtmasi bo‘lib, unga bo‘lajak pedagog kadrlar ta’lim – tarbiyasiga zamonaviy talablar ishlab chiqish orqali amalga oshadi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchılarnı ma’naviy-estetik tarbiyalash zamonaviy oliy ta’lim tizimining dolzarb muammosi sifatida quyidagılarnı amalga tadbıq etish zarur:

- Davlat ta’lim siyosatiga muvofiq zamonaviy umum metadologik talablarnı aniqlash, zarur xollarda o‘zgartirishlar kiritish; bugungi kun talablaridan kelib chiqib, ilmiy muammo atrofıdagi tushunchalar ko‘lamini o‘rganish va zarur xollarda aniqliklar kiritish (“Estetika”, “Ma’naviyat”, “Estetik qadriyat”, “Ma’naviy-estetik tarbiya”, “Madaniyat”, “Badiiy me’ros”, “Badiiy qadriyat”, “Milliy badiiy qadriyat”, “Badiiy qadriyatlar asosida ma’naviy-estetik tarbiyalash” va boshqalar);

- ma’naviy-estetik tarbiyaning bo‘lajak o‘qituvchılarnı kasbiy shakllantirishdagi o‘rnini aniqlashda o‘quvchılarning yosh hususiyatlarini hisobga olish;

- pedagogika fanlari dasturlarini modifikasiya qilish va ularning bo‘lajak o‘qituvchılarnı ma’naviy-estetik tarbiyalash imkoniyatlarini aniqlash;

- bo‘lajak o‘qituvchılarnı MET ning umumpedagogik tizimini ishlab chiqish;

- o‘zbek xalqining boy me’rosidan yuksak milliy-estetik qadriyatlarini saralab olish (ular bo‘lajak o‘qituvchılarda boy intellektual ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va ma’naviy dunyoinı boyitadi, kelgusi pedagogik faoliyatida ulardan unumli foydalanadi);

- pedagogika fanlari ma’ruzalari mazmunini, ularning texnologik xaritalarini, seminar-labaratoriya mashg’ulotlari ishlanmalarini ma’naviy-estetik mazmun bilan boyitgan xolda qayta tayyorlash;

- o'quvchilarga ma'naviy-estetik ta'sir ko'rsatishning samarali omillari, metodlarni va shakllarini aniqlash;

Yuqorida qayd etilganlarni ma'lum bir izchillikda pedagogika fanlari mazmuniga sobitqadamlik bilan singdirilsa, bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy

- estetik saviyasi yanada yuksaladi. Bu bilimlar o'qituvchilarning bo'lg'usi pedagogik faoliyatlarida o'z o'rmini topadi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Pedagogik kadrlarning milliy va umuminsoniy qadryatlar asosida ma'naviy-estetik tarbiyasi muammosi yechimi kechiktirib bo'lmas ijtimoiy ahamiyatga ega. Mazkur muammoni xal etish pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi, ularning shaxsiy-kasbiy rivojlanishiga va pirovard natijada davlat ta'lim siyosatining bajarilishiga olib keladi, kadrlar tayyorlash milliy dasturining bajarilishini ta'minlaydi.[1]

Pedagogning o'quvchilar fikrlashiga ma'naviy-estetik ta'siri murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u faqatgina ma'lumot uzatish bilan cheklanib qolmaydi. O'qituvchi o'zining munosabati, uslubi va yondashuvi bilan o'quvchilarning tanqidiy, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ikki asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: bilvosita va bevosita.

Bevosita ta'sir o'qitish jarayonida qo'llaniladigan usullar va savol-javoblar orqali amalga oshadi.

Savol berish orqali: O'qituvchi tomonidan berilgan savollar o'quvchining javob berish uslubiga ta'sir qiladi. Yopiq savollar (ha/yo'q javobni talab qiladigan savollar) faqat ma'lumotni yodlashga undasa, ochiq savollar ("nima uchun?", "qanday qilib?" kabi) o'quvchilarni tahlil qilish, bog'liqliklarni topish va o'z fikrini asoslashga majbur qiladi. Bu esa ularning tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.[3]

Muammoli vaziyatlarni yaratish orqali. O'qituvchi o'quvchilar oldiga murakkab yoki noaniq vaziyatlarni qo'yish orqali ularni mustaqil ravishda yechim topishga undaydi. Bu uslub o'quvchining mantiqiy fikrlashini faollashtiradi va muammolarni hal qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Munozara va debatni tashkil etish orqali. Dars jarayonida munozara muhitini yaratish o'quvchilarga o'z nuqtayi nazarini himoya qilish, boshqa fikrlarga hurmat bilan qarash va dalillarga asoslanib fikrlashni o'rgatadi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.[2]

Bilvosita ta'sir o'qituvchining shaxsiyati va darsdagi umumiy muhit orqali yuzaga keladi.

O'qituvchi shaxsiy namunasi orqali. O'qituvchi o'zining doimo o'rganishga intilishi, muammolarga ijodiy yondashuvi va yangi g'oyalarga ochiqqligi bilan o'quvchilarga o'rnak bo'ladi. Agar o'qituvchi o'z bilimlarini doimiy ravishda yangilab tursa, bu o'quvchilarni ham faol o'quvchi bo'lishga undaydi.

Darsdagi qulay muhit orqali. Xato qilishdan qo'rqmaydigan, ochiq va do'stona muhit o'quvchilarni erkin fikrlashga chorlaydi. Agar o'qituvchi o'quvchining har qanday savoliga hurmat bilan yondashsa, bu ularni savol berishdan tortinmaslikka o'rgatadi.

Shaxsiy e'tibor orqali. Har bir o'quvchining o'ziga xos qobiliyatlarini tushunib, uning qiziqishlariga mos keladigan topshiriqlar berish ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi. O'qituvchining motivatsion yondashuvi o'quvchining fikrlash jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.[2]

Innovatsion yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarni axloqiy-estetik tarbiyalash konsepsiyasi quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

Integratsiya tamoyili: Axloqiy va estetik tarbiyani bir-biridan ajratmagan holda, ularni o'quv jarayonining barcha bosqichlariga integratsiya qilish. Masalan, adabiyot darsida qahramonlarning xulqini tahlil qilish orqali axloqiy mezonlarni o'rgatish, shu bilan birga asarning badiiy uslubi va go'zalligiga e'tibor qaratish.

Ijodkorlikni rivojlantirish tamoyili: O'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan amaliy topshiriqlar, loyihalar va rolli o'yinlarni qo'llash. Bu ularning nafaqat bilim olishiga, balki o'z shaxsiy dunyoqarashini shakllantirishiga ham yordam beradi.

Texnologiyalardan samarali foydalanish tamoyili: Innovatsion ta'lim

texnologiyalarini (masalan, interfaol doska, onlayn platformalar, multimediya) o'quv jarayoniga joriy etish. Bu, o'quv materialini yanada qiziqarli va tushunarli qilishga xizmat qiladi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv tamoyili: O'quvchilarni passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi qilish. Muammoli vaziyatlarni hal qilish, guruhli loyihalarni bajarish va munozaralarda qatnashish orqali ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Milliy qadriyatlarning uyg'unligi tamoyili: Tarbiya jarayonida milliy an'analar, qadriyatlar va ma'naviy merosni umuminsoniy axloqiy me'yorlar bilan uyg'unlashtirish. Bu, o'quvchilarda o'zlikni anglash va boshqa madaniyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantiradi.[4]

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi o'z shaxsiyati, bilimi va malakasi bilan o'quvchilarning nafaqat intellektual salohiyatini, balki ma'naviy-axloqiy qiyofasini ham shakllantiradi. Pedagogning nutq madaniyati, muloqot uslubi, kasbiga bo'lgan sadoqati va ijodiy yondashuvi o'quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogika fanlari dasturlariga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, ta'lim jarayonida faoliyatga asoslangan yondashuvlar, munozara va debat kabi interfaol metodlarni qo'llash kelajak pedagoglarining kasbiy kompetensiyalarini yanada oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish va ma'naviy-estetik tarbiyani barcha darslarga integratsiya qilish orqali bo'lajak o'qituvchilarda milliy o'zlikni anglash, ijodkorlik va estetik did kabi muhim fazilatlar shakllanadi.

Yakuniy xulosa shuki, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ularning shaxsiy-kasbiy rivojlanishini ta'minlash va pirovardida jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan, innovatsion pedagogik usullarni qo'llaydigan tizimni yaratish zarur. Ushbu chora-tadbirlar O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarining muvaffaqiyatiga xizmat qiladi va kelajak avlod uchun barkamol shaxsni tarbiyalashga mustahkam zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xudoyberdiyeva Nafisa, “Bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy – estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiya, Jizzax – 2013
2. Xodjayeva, N. (2020). *Estetik tarbiyaning nazariy asoslari*. Toshkent: Ilm Ziyο.
3. Hasanboeva, O. (2021). *Pedagogik innovatsiyalar va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni*. Toshkent: Fan.
4. Jalolov, J. (2018). *Ta’lim jarayonida estetik tarbiya masalalari*. Toshkent: O‘qituvchi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion ta’lim texnologiyalari konsepsiyasi. (2020). Toshkent.